

“AYOLLAR DAFTARI” BO’YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR YUZASIDAN MATBUOT ANJUMANI O’TQAZILDI



“AYOLLAR DAFTARI” BO’YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR YUZASIDAN MATBUOT ANJUMANI O’TQAZILDI

Bugun, 15 iyul kuni viloyat statistika boshqarmasi binosida Termiz shahrida “Ayollar daftari”ning yuritilishi va bu borada olib borilayotgan ishlar bo’yicha matbuot anjumani bo’lib o’tdi. Matbuot anjumanida jurnalistlar, OAV vakillari, ijtimoiy tarmoq faollari, mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo’yicha o’rinbosarlari hamda xotin-qizlar ishtirok etishdi. Anjumanda shahar hokimining xotin-qizlar masalalari bo’yicha maslahatchisi Mexriniso Kenjaeva “Ayollar daftari”ning yuritilishi va bu borada olib borilayotgan ishlar to’g’risida batafsil ma’lumot berib o’tdi. Shuningdek, anjumanda jurnalist va ijtimoiy tarmoq faollari va xotin-qizlarning savollariga batafsil javob berildi.